

Toshkent shahridagi Turin politehnika universiteti “I2- PLEDGE” yangi xalqaro ta’lim loyihasida ishtirok etmoqda.

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti (TTPU) “I2- PLEDGE: Biotibbiyot muhandisligi bo’yicha innovatsion va fanlararo dasturlarni O’zbekistondagi talabalarning ishga joylashishi uchun raqamli o’sish dasturidan foydalanish” deb nomlangan yangi xalqaro ta’lim loyihasi doirasida Yevropa va O’zbekistonning bir qancha boshqa universitetlari bilan hamkorlikni yo’lga qo’ydi.

Loyihaning boshlang’ich yig’ilishi 2023-yil 29-30-mart kunlari Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bo’lib o’tdi. Uchrashuvda Yevropa Ittifoqi, Erasmus+ Milliy ofisi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yevropa va O’zbekistondagi hamkor universitetlar vakillari ishtirok etdi.



“I2-PLEDGE” loyihasi talabalarga biotibbiyot muhandisligi bo'yicha innovatsion va fanlararo dasturlarni taqdim etishdan iborat bo'lib, ularning O'zbekistonda ish bilan ta'minlanishi uchun raqamli o'sish dasturidan foydalanishga qaratilgan. Loyihada ishtirok etayotgan hamkor universitetlar: Yevropadan L'Aquila universiteti va G'arbiy Makedoniya universiteti hamda O'zbekistondan Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Adijon davlat tibbiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti.



Uchrashuvida loyiha koordinatori loyihalarni boshqarish bo'yicha muhim ma'lumotlar, loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar va EACEA vakillarining so'nggi yangiliklarini taqdim etdi. Yig'ilishda, shuningdek, moliyaviy masalalar, har bir universitetning loyihadagi o'rni, ish to'plamlari, kelgusidagi tadbirlar rejasi, natijalarga erishishning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Uchrashuvning ikkinchi kuni ishtirokchilar loyiha hamkorlaridan biri va bu sohada yetakchi muassasalardan biri bo'lgan Toshkent tibbiyot akademiyasining yangi kampusiga tashrif buyurishdi. Akademiya ishtirokchilarni loyihada muhim o'rin tutadigan o'zining zamonaviy laboratoriya xonalari bilan tanishtirdi.



Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti jamoasi ham loyiha doirasida o'z oldiga qo'yilgan vazifalar yuzasidan taqdimot qildi. Ushbu loyiha TTPU uchun xalqaro miqyosdagi ishtirokini kengaytirish, boshqa institutlar bilan hamkorlik qilish va talabalar hamda va professor-o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun ajoyib imkoniyatdir. Umuman olganda, "I2-PLEDGE" loyihasi O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va talabalarga biotibbiyot muhandisligi sohasida innovatsion dasturlarni taqdim etish orqali ularning bandligini oshirishga yordam beradigan muhim tashabbusdir.







